BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MUSIQA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.

M.A.Samieva
Bux.DU o'qituvchisi

O'quvchilar musiqiy savodxonlik malakalarini rivojlantirish musiqa o'qituvchisining muhim vazifasi bo'lib, hukumatimiz tomonidan musiqiy ta'lim-tarbiya masalalariga berilayotgan katta g'amxo'rlikni, e'tiborni his etishlari va mas'uliyatli vazifani bajarish yo'lidagi intilishlari natijasidir.

O'qituvchining o'zi qobiliyatli, bilimli, musiqa san'ati nazariyasi va amaliyoti, vokal, xor, cholg'uchilik, dirijorlik va nazariy sohalaridan chuqur bilim hamda malakalarga ega bo'lgan mahoratli, tajribali pedagog bo'lishi shart.

Musiqiy savodxonlik ishini avval boshdan to'g'ri yo'lga qo'yish va uning muvaffaqiyatli ishlashida o'qituvchining tashkilotchilik faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi ta'kidlab o'tilgan kasbiy sifatlardan tashqari musiqa pedagogikasi sohasida to'plangan boy tajribalar va ilg'or metodlardan yaxshi xabardor bo'lishi hamda bolalar bilan yaxshi "til" lasha oladigan va ularni bir maqsad yo'lida ishlashga safarbar eta olishi muhim omil hisoblanadi.

Musiqa madaniyati darslarini tushunarli, ilmiy, ta'sirchan, ko'rgazmali, ko'rsatmali, texnika vositalari yordamida o'tkazilgandagina kutilgan natijalarga erishish mumkin. Uning ishi rejali, tizimli yo'lga qo'yilishi oddiydan-murakkablikka tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

O'qituvchi o'quvchilarga musiqiy savodxonlik malakalarini shakllantirar ekan, o'z oldiga avvalo ta'limiy maksadni ko'yadi. Ular o'rganilishi lozim bo'lgan musiqiy bilimlar doirasi, ta'lim shakli va metodlarini belgilab beradi.

Kuzatuv hamda tajribalardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflar musiqa madaniyati darsligi asosida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan musiqiy savodxonlik malakalaridan quyidagilarni belgiladik:

1-sinfda o'quvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olishi, doyra va nog'ora milliy cholg'ularni biri-biridan farqlashi, tovushlarni baland-pastligini idrok etishi, butun nota, yarim nota, chorak nota va nimchorak nota shakli hamda cho'zimini bilishi, skripka kaliti, uning nota yo'lidagi joylashuvini bilishi, shoir, kompozitor, xonanda va sozanda kasbiy faoliyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari, yetti tovush nomi, ularning ketma-ketligida kuylay olishi kabi musiqiy savodxonlik kompetensiyalarini egallashi ko'zda tutilgan.

2 - sinfda yakkaxonlik va jo'rnavozlik ijro turini bilishi, takt chizig'ining nota yo'liga ifodalanishi qoidalarini, tonika, takt chizig'i, reprizani farqlay olishi, major va minor tovushqatori haqida tushunchalarga ega bo'lishi lozim.

3-sinfda esa o'quvchilar ikki chorakli va uch chorakli o'lchov, dirijorlik harakatlarini bajara olishi, pauzalarni bir-biridan farqlay olishi, ton, yarim ton tushunchalari, dinamik belgilarni bilishi, major hamda minor uch tovushligi, tovushqatorini nota yozuviga qarab kuylay olishi, ularni lad ohangiga qarab ajrata olishi, kuylanadigan qo'shiqlarning ohangiga qarab aniqlay olishi, alteratsiya belgilari (diez, bemol, bekar) ni bilishi nazarda tutilgan.

4-sinfda o'quvchilar qo'shiq haqida tushunchaga ega bo'lishi, oddiy musiqa shakllarini bilishi, band shaklini farqlay olishi, o'zbek xalq cholg'ularidan torli, damli va zarbli sozlarni bir-biridan farqlashi, xalq raqslarini farqini, berilgan kuy parchalarida notalarni nomlarini o'qiy olishi, sol major

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tonligi tushunchasiga ega bo'lishi, berilgan nota yo'liga takt o'lchoviga mos nota tayoqchalarini qo'ya olishi kabi kompetensiyalarni shakllantirish vazifa etib qo'yilgan.

O'qituvchi o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarda aktivligini oshirish, ularni mashg'ulotda ommaviy jalb etish orqali musiqiy savodxonlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga erishmog'i lozim.

Boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limi mazmuni o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish, ular faoliyatini aktivlashtirish, bosqichlararo o'zaro bog'liqlikka erishib, dars yaxlitligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Muhim jihat shundaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishda oddiydan-murakkabga tamoyili asosida ularda mantiqiy fikrlashga o'rgatish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Dars jarayonida sinfda ijodiy va qulay psixologik muhitni barpo qilish muhimdir. Musiqiy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish ijodiy intizom bilan bog'liq. Aniq rejali asosda tashkil qilingan mashg'ulotlar, kasbiy va pedagogik mahorat, shaxsiy namuna hamda yaxshi munosabat orqali samarali natijalarga erishish mumkin. O'qituvchining aniq rejasi, dastur va qat'iy intizom asosida olib borishi va pedagogik boshqarishi – bu nafaqat ta'limiy maqsadni amalga oshirish, balki o'quvchilarning badiiy-estetik tarbiyalashga xizmat qiluvchi jarayon hisoblanadi.

Olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlari san'atga ixlosmand o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilim va vokal-xor, ijrochilik malakalarini shakllantirish bilan mustahkamlashni ko'zda tutadi. O'quvchilar musiqiy faoliyatini faqat jamoa bo'lib qo'shiq o'rganish, kuylashdan iborat, deb tushunmaslik lozim. Shu bois, o'qituvchi sinf o'quv-tarbiya ishlariga katta ahamiyat berib, musiqiy nazariy tushunchalarni tushuntirib, uning amaldagi tadbiq etish yo'l- usullarini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Ta'kidlab o'tilganidek, o'qituvchi mashg'ulotlarda "Musiqa savodxonligi" bo'yicha nazariy va amaliy bilim, tushunchalarni mustahkamlash, to'ldirishga yo'naltirilgan musiqa savodi, solfedjio, musiqa nazariyasi hamda tarixi bo'yicha tushunchalarni bog'liq holda berib borishi yaxshi natija beradi. Boshlang'ich sinflarda dastlabki faoliyati davrida o'tkaziladigan o'quv-tarbiya ishlari bolalarning musiqa nazariyasining oddiy, sodda tushuncha va ma'lumotlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilishga, ya'ni musiqiy savodxonlik malakalarini egallashlariga qaratiladi.

Ma'lumki, musiqa asarini anglash, idrok etish musiqa savodidan boshlanadi va shu tushunchalarga asoslanadi. Musiqa madaniyati darslarida qaysi faoliyat amalga oshirilmasin, albatta savodxonlik ko'nikmalarini qo'llash zarurati tug'iladi. O'qituvchi olib boradigan savodxonlik malakalarini rivojlantirish ishlarining maqsadi o'quvchilarda musiqa savodidan nazariy ma'lumotlarni egallashga, kuylash jarayonida to'g'ri, jarangdor ovoz, interval-akkordlarni sof intonatsiya qilish malakalarini hosil qilishdir.

Bunda quyidagi jihatlarga asosiy e'tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan,:

- musiqaning muhim nazariy elementlari ustida ishlash, musiqiy- badiiy ifoda vositalarini egallash;
- musiqiy nazariy tushunchalarga rioya qilgan holda to'g'ri nafas olish, kuylash va tinglash malakalarini hosil qilish va rivojlantirish.
- o'quvchilarni yagona ta'limiy maqsadga birlashgan holda alteratsiya va dinamik belgilar mohiyatini inobatga olgan holda musiqiy ijrochilik faoliyatini amalga oshirish. Ifodali kuylash va emotsional idrok etishga erishish.

Musiqiy savodxonlikning muhim elementlarini hosil qilish musiqiy qiziqish va diqqatni talab etadi. Masalan, kuylash jarayonida vokal-xor texnikasi nafas olish, uni bir tekis, tejamli sarflash,

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tovush hosil qilish, uni ushlab turish, dinamika, intonatsiya, diksiya malakalarini egallashda musiqiy savodxonlikning o'rni alohida.

Darsda qaysi faoliyat qo'llanilmasin, musiqiy savodxonlikni o'zlashtirish texnologiyasi yaxshi o'zlashtirilmas ekan, unda to'laqonli ta'limiy maqsadga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun mashg'ulot jarayonida musiqiy savodxonlik qobiliyati hamda madaniyatini rivojlantirib borish zarur. Shu o'rinda musiqiy savodxonlikning asosiy jihatlariga qisqa tarzda to'xtalib o'tishni joiz, deb bilamiz:

Umumta'lim maktablaridagi, xususan boshlang'ich sinflardagi musiqa ta'limi asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqiy madaniyatni, estetik dunyoqarashni tarkib toptirishdir. Bu borada quyidagilar o'quvchilar e'tiborida bo'lishi lozim:

-Musiqiy asarlarni kuylash, tinglash, kerakli ma'lumotlar orqali o'quvchida g'oyaviy e'tiqodni shakllantirish; axloqiy tarbiyani amalga oshirish, ijtimoiy faollikni, san'atni idrok qilish, his etish, tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik va musiqiy didni o'stirish, badiiy tafakkurni, fikr doirasini kuchaytirish;

-Mashg'ulotlar jarayonida musiqiy fanlar aloqadorligidan unumli foydalanish, taqqoslash, tahlil qilishga keng o'rin berish, o'quvchilarni musiqiy savodxonlikka doir har bir topshiriq, vazifani chiroyli, go'zal va badiiy ta'sirchan bajarishlariga e'tibor berish;

-Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan rang- barang mavzulardagi qo'shiq, kuylarni o'rganishda musiqiy savodxonlikka oid nazariy bilim, malaka ko'nikmalarga murojaat qilish lozim.

-O'zbek bastakorlar asarlari bilan ishlashda asar xarakterining milliy xususiyatlari haqidagi tushunchalarga e'tibor qaratishda, o'zbek milliy musiqiy an'analari bastakorlar ijodi uchun asosiy manba ekanligini, bu an'analar xalqning fikr-o'ylari va orzu-umidlarini ifodalovchi yuksak badiiy boyliklar namunasi sifatidagi asarlar ekanligi haqida nazariy tushunchalarni berib borish.

O'qituvchining yana bir muhim vazifasi o'quvchilarda musiqa mashg'ulotlariga qiziqishini o'z ijrosida musiqa savodiga qiziqish va intilishni tarbiyalashi zarur.

O'quvchilarga musiqa savodxonligi bo'yicha muayyan bilim, ko'nikma va malakalar berishda quyidagi me'yorlarni alahida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq, deb bilamiz:

1. O'quvchilarning musiqa asarini qiziqish va hissiy tinglash yoki kuylashlari jarayonida musiqiy savodxonlikka rioya qilish;
2. Asarni kuylash, cholg'u sozlarida chalishga musiqiy bilimga ehtiyojni yuzaga kelishi;
3. Asarni badiiy ijrosi ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda musiqiy savodxonlik nuqtai-nazardan yondashish;
4. Musiqiy asarlarni o'rganish davomida mukammallikka erishilmagan o'rinlar, kamchiliklarda musiqiy savodxonlik darajasi ustida ishlash;
6. Kuy - qo'shiqlarni ularning mazmuniga muvofiq ijro etishga erishish, ijro jarayonida musiqiy bezak, dinamik rang-baranglikka erishish uchun musiqiy nazariy bilimlarga tayanish hamda amaliyotda tatbiq etish;
7. Kuylash, chalish paytida musiqa savodiga e'tibor berib, ularni me'yorlashtirish;
8. O'z ijro uslubiga mos muaayyan musiqiy savodxonlik tajribasiga ega bo'lish.

Mana shunday ko'nikma va malakalar zahirasiga ega bo'lgan o'quvchilarda musiqiy badiiy didni shakllanganligini ta'minlash imkoniyati vujudga keladi.

Xullas, mazkur ko'nikma va malakalarni to'g'ri shakllantirish musiqa darslarini izchillik, tizimlilik, davomiylik, ilmiylik tamoyillariga asoslanganligi, o'qituvchining nazariy bilim, malakalari, pedagogik mahorati va ilg'or tajribalardan unumli foydalanishga ko'p jihatdan

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bog'liq bo'ladi. Har bir o'qituvchi, pedagog o'quvchilarda estetik jihatdan badiiy qimmatli bo'lgan asarlarni idrok qilish, munosib baholash qobiliyatini rivojlantirishga, e'tirof etib o'tilgan mezonlarga tayangan holda ularning musiqiy savodxonlik madaniyati asoslarini shakllantirib borishga intilib ish tutish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 191-194.
2. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.
3. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.
4. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.
5. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatinin Tutgan O'Rni. International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses, 106–112. Retrieved from https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835
6. Артыкова, Э. ., & Рузиева, З. (2022). ВЕЛИКОЕ БЛАГОСЛОВЕНИЕ – ПЕСНЯ ШАШМАКОМ. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 1(2), 22–24. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/6459
7. E Ortikov.Historical Analysis of National Musical Heritage and Moral-Aesthetic Education in Music and Art Schools of Uzbekistan . 2023/8/20 Academic Journal Publisher http://dspace.umsida.ac.id/handle/123456789/5948
8. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.
9. **9 .** Mustafaev B. FROM THE HISTORY OF MUSIC EDUCATION AND PEDAGOGICAL SYSTEM ACTIVITY IN UZBEKISTAN IN THE 1950s-1970s //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1007-1012
10. Мустафаев Б. "БУХОРЧА" ВА "МАВРИГИ" МУСИҚИЙ ТУРКУМЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ, МАЪНАВИЙ–МАЪРИФИЙ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
11. Мустафаев Б. БАРКАМОЛ АВЛОД МУСИКА МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА ИСЛОҲОТЛАРНИН АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
12. Мустафаев Б. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МУСИҚИЙ САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА БАҲОЛАШГА ЎРГАТИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.